

Date: 25th June-2026

**KORXONALARNING AKTIV VA MAJBURIYATLARINI ADOLATLI
QIYMATIDAN FOYDALANIB BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI
YURITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Rajabova Maftuna Shuhrat qizi

Buxoro davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va statistika”

kafedrası o‘qituvchi-stajori, magistrant

E-mail: maftunarajabova526@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezida zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarining aktiv va majburiyatlarini adolatli qiymat asosida baholash, ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlildagi o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda MHXS 13 (Adolatli qiymatni o‘lchash) standarti talablaridan kelib chiqib, adolatli qiymat iyerarxiyasi (1, 2 va 3-darajalar) va baholash usullarining (bozor, daromad va xarajat yondashuvlari) amaliyotda qo‘llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Adolatli qiymat, MHXS 13, aktivlar va majburiyatlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, baholash yondashuvlari, bozor qiymati, shaffoflik, moliyaviy hisobot.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va dolzarbligini ta’minlashda “Adolatli qiymat” (Fair Value) tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. An’anaviy “tarixiy tannarx” (historical cost) tamoyili aktivlarning sotib olingan vaqtdagi qiymatini aks ettirsa-da, bugungi o‘zgaruvchan bozor sharoitida u aktivning real iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatib bera olmaydi. Shu sababli, MHXS (IFRS) tizimida adolatli qiymat kontseptsiyasiga o‘tish moliyaviy ma’lumotlar foydalanuvchilari (investorlar, kreditorlar) uchun qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatli qiymatning xalqaro ta’rifi va evolyutsiyasi. 2013-yil 1-yanvardan kuchga kirgan 13-sonli MHXS (IFRS 13) "Adolatli qiymatni baholash" standarti ushbu tushunchaga yagona va universal ta’rif berdi.

ASOSIY QISM

Adolatli qiymat — bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi bitimda aktivni sotishdan olinadigan yoki majburiyatni topshirish uchun to‘lanadigan narxdir⁸. Bunda quyidagi terminlar mavjud:

- ❖ Chiqish narxi (Exit price): Bu aktivni sotib olish narxi (Entry price) emas, balki korxonadan chiqib ketish narxidir.
- ❖ Odatdagi bitim: Majburiy sotuv yoki tugatish holati emas, balki bozor kon’yunkturasi normal bo‘lgan holatdagi bitim.
- ❖ Bozor ishtirokchilari: Bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan (mustaqil), bilimli va ixtiyoriy tomonlar.

Adolatli qiymatning mohiyati uning bozorga yo‘naltirilganligida (market-based measurement). Ya’ni, bu qiymat korxonaning o‘z sub’ektiv bahosi emas, balki bozorning ushbu aktivga bergan obyektiv bahosidir.



1-jadval

Tarixiy tannarx va Adolatli qiymatning qiyosiy tahlili

Xususiyatlari	Tarixiy tannarx (Historical Cost)	Adolatli qiymat (Fair Value)
Vaqt omili	O'tmishga yo'naltirilgan	Hozirgi vaqtga yo'naltirilgan
Ob'ektivlik	Yuqori (hujjat bilan tasdiqlangan)	Bozor holatiga bog'liq (proaktiv)
Dolzarblik	Past (inflyatsiya hisobga olinmaydi)	Yuqori (investorlar uchun muhim)
Hisoblash asosi	Sotib olish xarajatlari	Sotishdan kutilayotgan tushum

Jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan tarixiy tannarx (historical cost) tamoyili asosan o'tmishdagi hujjatlashtirilgan xarajatlarga tayangani sababli yuqori darajadagi ob'ektivlikka ega. Biroq, bugungi tez o'zgaruvchan bozor sharoitida ushbu usul aktivlarning real iqtisodiy salohiyatini aks ettirishda o'z dolzarbligini yo'qotmoqda, chunki u inflyatsiya va bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaydi. Ushbu masalada vaqt omili va dolzarblik mezonlari bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllangan:

Vaqt omili (Time orientation): Tarixiy tannarx o'tmishga yo'naltirilgan bo'lib, aktivning sotib olingan vaqtdagi qiymatini saqlab qoladi. **Aksincha, adolatli qiymat (fair value) konsepsiyasi hozirgi vaqtga yo'naltirilgan bo'lib, u aktivning kelajakda keltirishi kutilayotgan iqtisodiy foydasini bugungi kundagi bozor narxlarida aks ettiradi.** Tarixiy tannarx modeli o'tgan davrdagi statik tranzaksiyalarga tayangani sababli, hisobot tuzilgan sanadagi inflyatsiya va bozor konyunkturasining dinamik o'zgarishlarini hisobga olmaydi, adolatli qiymat esa har safar hisobot sanasidagi joriy bozor real voqeligini (current market reality) aks ettiradi. E.S. Xendriksen va M.F. Van Bredalarning ta'kidlashicha, iqtisodiy voqelikni to'g'ri aks ettirish uchun hisob tizimi retrospektiv (o'tmishga qaragan) modeldan prospektiv (kelajakka qaragan) modelga o'tishi zarur¹³.

Dolzarblik (Relevance): Adolatli qiymat metodologiyasining asosiy afzalligi uning moliyaviy hisobot foydalanuvchilari, ayniqsa investorlar va kreditorlar uchun yuqori darajadagi dolzarblik va bashorat qilish imkoniyatini taqdim etishidadir¹⁴. M.E. Barth va boshqa olimlar adolatli qiymat hisobining investorlar uchun axborot ahamiyatini (value relevance) yuqori baholab, u aktivning real bozor qiymatiga yaqinroq natijalarni berishini isbotlaganlar. Adolatli qiymat (fair value) konsepsiyasi hozirgi vaqtga yo'naltirilgan bo'lib, u aktivning kelajakda keltirishi kutilayotgan iqtisodiy foydasini (sotishdan kutilayotgan tushum) bugungi kundagi bozor narxlarida aks ettiradi. Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, adolatli qiymat metodologiyasining asosiy afzalligi uning moliyaviy hisobot foydalanuvchilari, ayniqsa investorlar va kreditorlar uchun yuqori darajadagi dolzarblik (relevance) va bashorat qilish imkoniyatini taqdim etishidadir.

XULOSA

Buxgalteriya hisobida adolatli qiymat nafaqat bozor ishtirokchilari uchun foydali bo'lishi, balki tashkilotlarning moliyaviy holatini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. **Ochiqlik, bozor asosidagi baholash, ehtimollik, sub'ektiv yondashuvdan saqlanish va eskirishni hisobga olish** kabi tamoyillar bu jarayonni to'g'ri va ishonchli qilib belgilaydi. Shu sababli, adolatli qiymatni baholashda turli metodlarni ehtiyotkorlik bilan qo'llash va



Date: 25th June-2026

amaliyotda asosiy tamoyillarni inobatga olish juda muhim. Bu, o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.1 . O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
- 1.2 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
- 1.3 . Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: International Accounting Standards Board (IASB), 2018.
- 1.4 . International Accounting Standard (IAS) 1. Presentation of Financial Statements. – London: IASB, 2007.
- 1.5 . International Accounting Standard (IAS) 16. Property, Plant and Equipment. – London: IASB, 2003.
- 1.6 . International Accounting Standard (IAS) 32. Financial Instruments: Presentation. – London: IASB, 2003.
- 1.7 . International Accounting Standard (IAS) 40. Investment Property. – London: IASB, 2003.
- 1.8 . International Accounting Standard (IAS) 41. Agriculture. – London: IASB, 2001.
- 1.9 . International Financial Reporting Standard (IFRS) 3. Business Combinations. – London: IASB, 2008.
- 1.10. International Financial Reporting Standard (IFRS) 7. Financial Instruments: Disclosures. – London: IASB, 2005.
- 1.11. International Financial Reporting Standard (IFRS) 9. Financial Instruments. – London: IASB, 2014.
- 1.12. International Financial Reporting Standard (IFRS) 13. Fair Value Measurement. – London: IASB, 2011.
- 2.1. Бриггем Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. – СПб.: Питер, 2016. – 864 с.
- 2.2. Булыга Р.П. Аудит бизнеса в условиях перехода к цифровой экономике. – М.: Юнити-Дана, 2019. – 285 с.
- 2.3. Вахрушина М.А. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: Национальное образование, 2014. – 416 с.
- 2.4. Данилов И.А. Эконометрическое моделирование в финансовом анализе. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 240 с.
- 2.5. Друри К. Управленческий и производственный учет. – М.: ЮНИТИ, 2015. – 735 с.